

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADRAXIMOV G‘AYRATJON NEMATJONOVICH**

**TARKIBIDA TEMIR SAQLOVCHI AYRIM BIOLOGIK FAOL  
TOVARLAR OLIH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi**

**14.00.41 – Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

<b>Madraximov G‘ayratjon Nematjonovich</b> Tarkibida temir saqlovchi ayrim biologik faol tovarlar olish va ularni sinflash .....	3
<b>Мадрахимов Гайратжан Нематжанович</b> Получение некоторых биологически активных товаров, содержащих железо и их классификация .....	21
<b>Madrakhimov Gayratjon Nematjonovich</b> Obtaining some biologically active products containing iron and their classification .....	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published work.....	43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADRAXIMOV G‘AYRATJON NEMATJONOVICH**

**TARKIBIDA TEMIR SAQLOVCHI AYRIM BIOLOGIK FAOL  
TOVARLAR OLISH VA ULARNI SINFLASH**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi**

**14.00.41 – Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K424 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-saxifasida (www.adu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Asqarov Ibrohim Rahmonovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Xojimatov Maxsadbek Muydinovich**  
kimyo fanlari doktori, dosent

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayev Shavkatjon Vaxidovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Imomova Mukammal Yormuhamadovna**  
kimyo fanlari bo'yicha fasafa doktori (PhD), dosent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "27" 04 soat 10<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko'cha. 129. Tel.: (99874)223 88 30, faks: (99874) 223 84 33

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'chasi 129. Tel.: (99874) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33) e-mail: gayratjanmadrahimov@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil " 15 " iyul kuni tarqatildi.  
(2023 yil \_\_\_\_\_ daqiqa № 13 raqamli reestr bayonnomasi).



*[Handwritten signature]*

**X.Isaqov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, tex.f.d., professor

**M.M.Mo'minjonov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, k.f.d.

*[Handwritten signature]* **Sh.V.Abdullaev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda aholi sonining o‘shib borishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda dorivor o‘simliklar asosida yangi turdagi biologik faol tovarlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu borada, tarkibida temir saqlovchi biologik faol moddalar sintez qilish, oziq-ovqat qo‘shilmalari olish va ularni amaliyotga keng joriy etish qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga hamda dorivor mahsulotlarga bo‘lgan talablarni qondirish kabi muammolarni hal etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham, ekologik toza, biologik faol moddalar manbalarini aniqlash, ularni modifikatsiya qilish, analoglarini sintez qilish hamda yangi turdagi zararsiz biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda qishloq xo‘jaligi sohasida o‘simliklarni o‘shishi va rivojlanishi, hosildorligini oshishiga ta‘sir etuvchi yangi biologik faol moddalarni sintez qilish, ularni ijobiy ta‘sirini yanada oshirish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, tarkibida temir tutgan yangi birikmalar sintez qilish, ular asosida qishloq xo‘jaligi o‘simliklari uchun yangi turdagi biostimulyatorlar ishlab chiqish, shuningdek, tarkibida qandli diabet kasalligini davolash va oldini olish xususiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklar asosida biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuning uchun mahalliy xomashyolar asosida qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun yangi biostimulyatorlar sintez qilish, hamda o‘simliklar asosida yangi turdagi dorivor oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda kimyo sanoatini rivojlantirish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. So‘ngi yillarda kimyo sanoatiga ilg‘or texnologiyalarni jalb etish orqali yuqori natijalarga erishilmoqda. Bu borada qishloq xo‘jaligi amaliyotida qo‘llaniladigan o‘g‘itlar va preparatlar yaratishga katta e‘tibor qaratildi. Ushbu sohada amalga oshirilgan chora–tadbirlar asosida muayyan ijobiy natijalarga, jumladan, ayrim metallorganik birikmalar asosida biologik faol birikmalar sintez qilish va ularni qo‘llashda muhim natijalarga erishildi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> “qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqonlar va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazish” hamda “Farmasevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta‘minlash darajasini 80 foizga yetkazish” vazifalari belgilab berilgan. Shu vazifalardan kelib chiqib Respublikamizdagi qishloq xo‘jaligining asosiy ekinlari bo‘lgan paxta va g‘alla hosildorligini oshirishning asosiy omillaridan bo‘lgan biologik faol moddalar olish, jumladan tarkibida temir moddasi saqlagan o-ferrotsenilbenzoy kislotasi asosida yangi biostimulyatorlar sintez qilish, ularni kimyoviy tarkibi bo‘yicha tegishli sinflarga ajratish hamda respublikamiz hududida o‘suvsuchi o‘simliklar asosida dorivor xususiyatga ega yangi biologik faol oziq-ovqat

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi Farmoni.

qo shilmalari ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 apreldagi PF-5012-sonli “Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-son “2019 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmonlari, 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3245-son “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2019 yil 23 apreldagi PQ-4297-son “Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma‘muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 20 noyabrdagi PQ-4525-son “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tarkibida temir tutgan tipik metallorganik birikmalardan bo‘lgan – Ferrotsen va uning hosilalari ustida ko‘plab olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, A.N.Nesmeyanov, N.A.Nesmeyanov, N.S.Kochetkova, E.G.Perevalova, V.A.Sergeyev, V.D.Vilchevskaya (Rossiya), S.A.Shlyogl (Germaniya), L.Asatiani (Gruziya), Ye.A.Kolennikov, Ya.M.Paushkin (Belorusiya), Robert Woodward, John Tremaine, John Tebboth (AQSH), S.Yamada, A.Nakahira, M.Kumada (Yaponiya) kabi olimlar ferrotsenning alifatik, aromatik hosilalarini sintez qildilar.

O‘zbek kimyogar olimlari ham ferrotsen hosilalari ustida bir qancha tadqiqot ishlarini olib borganlar. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va rasionalizatorlar kimyo fanlari doktori, professorlar A.G‘.Mahsumov, I.R.Asqarov va ularning shogirdlari kimyo fanlari doktori, professor Sh.M.Qirg‘izov, kimyo fanlari nomzodlari, dosentlar T.Yu.Nasriddinov, S.K.Karimov, A.M.Jo‘rayev, k.f.d., dos. M.M.Xojimatov, k.f.d., dos. O.Sh.Abdullayev, k.f.d. M.M.Mo‘minjonovlar va boshqalar bu borada diqqatga sazovor ishlarni amalga oshirganlar. Tiomochevina, monometiloltiomochevina hosilalari ustida M.N.Nabiyev, B.M.Beglov, K.G.Sodiqov, H.U.Usmonov, X.Isaqov, Yu.X.Xolboyev kabi kimyogar olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

Xalq tabobati bo‘yicha O‘zbekiston Tibbiy ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar “Tabobat” akademiyasi o‘z faoliyatini olib bormoqda. K.f.d., professor I.R.Asqarov boshchiligidagi t.f.d., professor S. Mamasoliyev, k.f.d., dotsent Yu.T.Isayev, k.f.d., dotsent I.Mamatova, k.f.d., dotsent Yu.X.Xolboyev, N.A.Razzaqov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ilmiy manbalarda ferrotsen va uning birikmalarini olish, xossalarini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar keltirilgan, lekin *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasining mochevina hamda tiomochevina hosilalarini saqlovchi birikmalar sintezi hamda ularning xossalari, kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflash amalga oshirilmagan.

Ushbu dissertasiya ishi *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasi va mochevina, tiomochevina hosilalari saqlovchi biologik faol birikmalar sintez qilish, xossalarini fizik-kimyoviy usullarda aniqlash, kimyoviy tarkibi asosida tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) bo'yicha tegishli kod raqamlari berish hamda ayrim o'simliklar asosida tarkibida temir saqlagan shifobaxsh xususiyatga ega biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari olish va amaliyotga joriy etish kabi muammolarni yechishga qaratilgan.

**Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti Andijon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Xalq xo'jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqish va sinflash" tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ayrim mahalliy xomashyolar asosida tarkibida temir saqlagan yangi biostimulyatorlar va biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish, ularning tarkibi va tuzilishini aniqlash, hamda tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha sinflashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

*o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasi, mochevina hamda tiomochevina hosilalari asosida yangi biologik faol birikmalar sintezini amalga oshirish;

sintez qilingan birikmalarning kimyoviy tarkibi va tuzilishini kimyoviy analiz, xromatografiya, IQ spektroskopiya va mass-spektrometriya usullari yordamida tahlil qilish;

sintez qilingan birikmalardan biologik faolligi yuqori bo'lgan moddalarni laboratoriya sharoitida aniqlash;

aniqlangan biologik faol birikmalarni dala amaliyoti sinovlaridan o'tkazish;

sintez qilingan va yuqori biologik faollik namoyon etgan birikmalarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash hamda TIF TN bo'yicha tegishli xalqaro tovar kodlari ishlab chiqish;

tarkibida temir saqlovchi qandli diabet kasalligida qo'llaniladigan tovarlar olish hamda ularni kimyoviy tarkibini aniqlash;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasining, mochevina, tiomochevina hosilalari bilan yangi birikmalari hamda "Oltin vodiy" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasi, mochevina, tiomochevina hosilalari asosida biologik faol moddalar sintez qilish, ularning kimyoviy tarkibi asosida tegishli sinflarga ajratish, hamda kiyiko't, suli, jambil, tog' archasi o'simliklarining kimyoviy tarkibini aniqlash, ular asosida biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari olish, ularga me'yoriy texnik xujjatlar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertasiyada preparativ sintez, yupqa qatlamli va kolonkali xromotografiya, IQ spektroskopiya, mass-spektrometriya, kimyoviy

analiz, kimyoviy moddalar molekulyar tuzilishini va xossalarini zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblash hamda biologik faollikni aniqlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

*o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasining mochevina, tiomochevina hosilalari bilan reaksiyasi asosida yangi biologik faol birikmalar sintez qilish usullari ishlab chiqilgan va oltita yangi moddalar hamda ular asosida 18 ta tuzlari sintez qilingan;

*o*-ferrotsenilbenzoy kislotasini monometilolmochevina, metilendimochevina, monometilotiomochevina, metilenditiomochevina bilan hosilalari diazotirlash reaksiyasi orqali, dimetilolmochevina, dimetiloltiomochevina bilan reaksiyasi kislotali muhitda turli hil erituvchilarda sodir bo'lishi aniqlangan;

sintez qilingan birikmalarning kimyoviy tarkibi va tuzilishi, fizikaviy xossalari IQ spektroskopiya, mass-spektrometriya va kvant-kimyoviy hisoblash metodlari yordamida aniqlangan;

sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini g'o'za chigiti va bug'doyning unib chiqishi, o'sishi va rivojlanishi hamda hosildorligiga, ijobiy ta'siri isbotlangan;

*o*-ferrotsenilbenzoy kislotasi asosida sintez qilingan biostimulyatorlar uchun TIF TN bo'yicha yangi xalqaro tovar kodi ishlab chiqilgan;

ayrim dorivor o'simliklar asosida tarkibida temir saqlovchi qandli diabet kasalligida qo'llaniluvchi yangi tovar mahsuloti ishlab chiqilgan hamda kimyoviy tarkibi aniqlangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasi va monometilolmochevina asosida bug'doy va g'o'zaning hosildorligini oshiruvchi "AXM" hamda "AXM-2" biostimulyatori yaratilgan;

tarkibida *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasi hosilalari tutgan birikmalar Uyg'unlashgan tizim qoidalariga ko'ra sinflanib, ularga TIF TN asosida yangi tovar kod raqami ishlab chiqilgan;

tarkibida temir saqlovchi qandli diabet kasalligida qo'llaniladigan "Oltin vodiy" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** *o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasi va mochevina, tiomochevina asosida biologik faollikka ega bo'lgan birikmalar sintezini amalga oshirish yo'llari taklif etilganligi, sintez qilingan birikmalarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari, biologik faollikni tadqiq etish, hamda "Oltin vodiy" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmasini qandli diabet kasalligini davolashda qo'llash, uning tarkibidagi muhim elementlarni zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida o'rganish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasi va mochevina, tiomochevina asosida sintez qilingan birikmalar va o'simliklar asosida ishlab chiqilgan oziq-ovqat qo'shilmalarning tarkibi va tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy metodlar yordamida aniqlanganligi, hamda natijalarning qayta ishlanib, isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qishloq xo'jaligi ekinlari uchun biostimulyatorlik xossasiga ega bo'lgan birikmalar sintez qilinganligi, shuningdek, dorivor o'simliklar asosida yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab

chiqilganligi, hamda ularga kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** *o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasi va monometilolmochevina asosida sintez qilingan biologik faol moddalarni tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

*o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasi va monometilolmochevina bilan sintez qilingan "AXM" hamda "AXM-2" biostimulyatorlarini 2017-2021 yillar davomida Andijon viloyatidagi 100 gektar bug'doy, 160 gektar g'oz maydonlariga joriy etilgan (O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 11 fevraldagi 07/35-04/336-son ma'lumotnomasi). Natijada, AXM bilan ishlov berilgan bug'doy maydonlaridan amaldagi stimulyatorlarga nisbatan qo'shimcha 10-16 s/ga, AXM-2 bilan ishlov berilgan g'oz maydonlaridan qo'shimcha 4,9 s/ga hosil olish imkonini bergan;

*o*-ferrotsenilbenzoy kislotasi asosida olingan birikmalar Uyg'unlashgan tizim qoidalariga muvofiq sinflanib, ularga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasi asosida olingan biostimulyatorlar uchun – 3808 93 900 6 tovar kodi ishlab chiqilgan va davlat bojxona amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2022 yil 30 iyuldagi №16/05-22-0431 son ma'lumotnomasi). Natijada, tarkibida *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasi saqllovchi biologik faol birikmalarni kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflash imkonini bergan;

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta, jumladan 6 ta xalqaro 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertasiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, 4 ta respublika ilmiy jurnallarida, xorijiy jurnallarda 5 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ferrotsen, mochevina va tiomochevina hosilalari (adabiyotlar tahlili)**" deb nomlangan birinchi bobida ferrotsen, mochevina hamda tiomochevina hosilalari, ular asosida olingan biologik faol birikmalar ustida olib


borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, xorijiy va maxalliy adabiyotlar tahlili yoritib berilgan. Tovarlar kimyosi fanining maqsad va vazifalari, uyg'unlashgan tizim, tovar, nomenklatura, sinflash hamda ushbu sohada ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlarning ishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning “***o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasining mochevina hamda tiomochevina hosilalari bilan birikmalari va ularning biologik faolligi (olingan natijalar muhokamasi)**” deb nomlangan ikkinchi bobida *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasining monometilolmochevina, dimetilolmochevina, metilendimochevina, monometiloltiomochevina, dimetiloltiomochevina, metilenditiomochevina bilan hosilalarining IQ spektroskopik, mass-spektrometrik analiz natijalari hamda ularning olingan suvda eruvchan tuzlarining fizik-kimyoviy xossalari, element analizlari tahlili yoritilgan. *o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasining suvda eruvchan tuzlari asosida olingan yangi AXM, AXM-2 tarkibini fizik-kimyoviy tahlillari, hamda ularning biologik faolliklarini o'rganish bo'yicha olingan natijalar muxokama qilingan.

**1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamid sintezi.** Manbalarda *p* – ferrotsenilfenol, *m*-, *p*-ferrotsenilbenzoy kislotalarining alifatik va aromatik hosilalari hamda ularning suvda eruvchan tuzlari olingan. Biroq *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasining mochevina hamda tiomochevina hosilalari bilan birikmalari sintez qilinmagan va ularning xossalari haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Biz tomonimizdan *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasining yangi biologik faol birikmalari olish maqsadida tadqiqotlar olib borilib, uning mochevina va tiomochevina hosilalari asosida bir qator yangi birikmalari hamda ularning ayrim suvda eruvchan tuzlari sintez qilindi.

*o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasini monometilolmochevina bilan hosilasi – 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamid sintezi diazotirlash metodida amalga oshirildi. Mahsulot qizg'ish rangli kristall modda bo'lib, reaksiya unumi *o*-ferrotsenilbenzoy kislotaga nisbatan 52 % ni tashkil qildi. T.s.=154-155 °C. Brutto formula: C<sub>19</sub>H<sub>17</sub>O<sub>4</sub>NFe.

Gaussian 98 dasturi DFT/B3LYP metodining 6-311G(2d) bazisi yordamida *o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasi va monometilolmochevina orasidagi reaksiya mahsulotlarini tuzilishini energetik jihatdan asoslash uchun mumkin bo'lgan barcha izomerlarini optimallashtirilgan strukturalari, Hartri energiyalari ( $E_{\text{Hart}}$ ) hisoblandi va ular orasidagi farqlar ( $\Delta E$ ) aniqlandi (1-jadval). *o*-Ferrotsenilbenzoy kislotasini monometilolmochevina bilan diazotirlash reaksiyasi natijasida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan izomerlarning optimallashtirilgan strukturalari quyidagi sxemada keltirilgan:




### 1-(2-karbonsifeni)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning mumkin bo'lgan izomerlari

1-jadval. 1-(2-karbonsifeni)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning mumkin bo'lgan izomerlarining Hartri energiyalari.


Modda	Izomerlar	$E_{\text{Hart}}$ , kJ/mol	$\Delta E$ , (kJ)	Dipol momenti, D
1-(2-karbonsifeni)-1'-N-metiloksiferrotsenilamid	1	-2341.2281	0	3.6297
	2	-2333.1742	8.0539	2.0388
	3	-2341.1928	0.0353	1.3049
	4	-2341.1929	0.0352	1.0403
	5	-2341.2204	0.0077	0.8143
	6	-2341.1974	0.0307	1.1246
	7	-2341.2067	0.0214	1.7137

1-jadvaldan ko'rish mumkinki, *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasini monometilolmochevina bilan ta'sirlashishi natijasida energetik jihatdan eng maqbuli 1 mahsulot ya'ni, 1-(2-karbonsifeni)-1'-N-metiloksiferrotsenilamid ekanligi isbotlandi.

**1-(2-karbonsifeni)-1'-N-metiloksiferrosenilamidning tuzilishini IQ spektroskopik tadqiqi.** Tadqiq etiluvchi birikmalarning IQ spektridagi yutilish sohasini molekuladagi muayyan tebranishlarga tegishli ekanligini aniqlash uchun izotop almashinuv, past temperaturali yoki boshqa metodlardan foydalanmasdan amalga oshirish qiyin. Shu sababdan, moddalarning IQ spektridagi yutilish chiziqlarini tegishli tebranishlarga mosligini aniqlash maqsadida adbiyotlarda keltirilgan ma'lumotlardan va ayni molekulaning tebranish spektrini kvant-mexanik hisoblab topilgan natijalarni taqqoslash usulidan foydalanildi. 1 rasmda 1-(2-karbonsifeni)-1'-N-metiloksiferrosenilamidning maqbullashtirilgan molekulyar tuzilishi, 2 rasmda uning amalda olingan IQ spektri, 2 jadvalda esa 1-(2-karbonsifeni)-1'-N-metiloksiferrosenilamidning IQ spektrida nazariy hisoblangan va eksperimental olingan to'liq sonlari qiymatlari keltirilgan.



1 Rasm. 1-(2-karboksifenil)-1'-N-(ferrosenilmetil)-N'-metiloksikarboksamidning maqbulashtirilgan molekulyar strukturasi.



2 Rasm. 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrosenilamidning IQ spektri.


**2 Jadval. 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrosenilamidning IQ spektrida nazariy hisoblangan va eksperimental olingan to'liq sonlari qiymatlari (sm<sup>-1</sup>).**

№	Tebranish turi	Yutilish sohasi maksimumi to'liq soni, sm <sup>-1</sup>	
		Hisoblangan	Olingan
1.	V <sub>s</sub> (CH <sub>2</sub> )	740	746
2.	δ <sub>s</sub> (C-C-C) (C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> )	<b>859</b>	<b>859</b>
3.	V <sub>s</sub> (C-H) (Cp)	<b>1115</b>	<b>1115</b>
4.	V <sub>as</sub> (COOH)	<b>1261</b>	<b>1261</b>
5.	V <sub>as</sub> (CH <sub>2</sub> )	1419	1415
6.	δ <sub>as</sub> (CCC) (C <sub>6</sub> H <sub>4</sub> )	1599	1607
7.	V <sub>as</sub> (>C=O)	1690	1686
8.	V(O-H)	3437	3435

2-jadvaldan ko'rish mumkinki, 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrosenilamidning nazariy hisoblangan va eksperimental olingan IQ spektrida olingan natijalar bir-biriga yaqin bo'lib, >CH<sub>2</sub> – guruhining mayatniksimon tebranishi nazariy 740, amalda 746 sm<sup>-1</sup>; 1, 2-dialmasingan benzol xalqasidagi C-C-C deformatsion tebranishi nazariy olingan qiymat amalda olingan qiymat - 859 sm<sup>-1</sup>; da to'la mos ekanligi; geteroannulyar almashingan Cp xalqasi C atomlarining simmetrik valent tebranishlari hamda karboksil guruhlarning yutilish chiziqlarining ham to'la bir-biriga mos kelishi, metilen guruhi, C<sub>6</sub>H<sub>4</sub>, karboksil va gidroksil guruhlarning bergan cho'qqilarning bir-biriga juda yaqinligi biz tomonimizdan sintez qilingan modda 1-(2-karboksifenil)-1'-N-

metiloksiferrotsenilamid ekanligi va uning strukturasi 2.1-rasmdagiga mos kelishini tasdiqlaydi.

Olingan IQ spektr ma'lumotlari mass-spektrometriya tahlili natijalari bilan tasdiqlandi (3 rasm). 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning mass-spektrida asosiy cho'qqilar reaksiya mahsulotining molekulyar ioniga mos ekanligi aniqlandi (3 jadval).



3 Rasm. 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning mass-spektri.


**3 jadval. 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning mass-spektrometrik ko'rsatkichlari**

№	Ion	$m/z$	Nisbiy intensivlik, %
1	[HOCC <sub>6</sub> H <sub>4</sub> FcC(O)NHCH <sub>2</sub> OH]	379	48±1
2	[ <sup>-</sup> OCC <sub>6</sub> H <sub>4</sub> Fe]	273	46±1
3	[FcC <sub>6</sub> H <sub>4</sub> COOH]	306	39±1
4	[HFcC <sub>6</sub> H <sub>4</sub> COOH]	307	32±1
5	[HOCC <sub>6</sub> H <sub>4</sub> Fe]	274	5±1

3 rasm va 3 jadvaldan ko'rish mumkinki, 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamid ([HOCC<sub>6</sub>H<sub>4</sub>FcC(O)NHCH<sub>2</sub>OH]) ning nisbiy intensivligi 48±1 % ga teng bo'lib, ishda ko'zlangan maqsadga erishilgan.

#### **Sintez qilingan birikmalarning ayrim suvda eruvchan tuzlari sintezi.**

Ma'lumki, K, Na, Li kabi metallar tirik organizm uchun muhim elementlardan bo'lib, ular ishtirokida organizmda ko'plab biokimyoviy jarayonlar amalga oshadi. O'simliklar ozuqa elementlarini oson o'zlashtirishlari uchun ozuqa elementlari suvda yaxshi erishi kerak. Shularni inobatga olib sintez qilingan birikmalarni suvda eruvchan ayrim tuzlari sintez qilindi. 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning suvda eruvchan tuzlari reaksiyaning umumiy sxemasi quyidagicha:



M = Li; Na; K;

1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning litiyli tuzi T.s.= 213 °C dan yuqori. IQ-spektr: ( $\nu$ ,  $\text{cm}^{-1}$ ): 742, 1415, ( $-\text{CH}_2-$ ), 1115 (Cp), 1685 ( $>\text{C}=\text{O}$ ); ( $\delta$ ,  $\text{cm}^{-1}$ ): 860, 1607 ( $\text{C}_6\text{H}_4$ ). Aniqlandi: Fe 14,423 %. Hisoblandi: Fe 14,545 %. Brutto formula:  $\text{C}_{19}\text{H}_{16}\text{O}_4\text{NLiFe}$ .

1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning natriyli tuzi T.s.= 209 °C dan yuqori. IQ-spektr: ( $\nu$ ,  $\text{cm}^{-1}$ ): 742, 1415, ( $-\text{CH}_2-$ ), 1115 (Fc), 1259 ( $\text{COONa}$ ), 1685 ( $>\text{C}=\text{O}$ ); ( $\delta$ ,  $\text{cm}^{-1}$ ): 1104 (Fc) 860 (Ar- $\text{COONa}$ ). Aniqlandi: Fe 13,965 %. Hisoblandi: Fe 13,827 %. Brutto formula:  $\text{C}_{19}\text{H}_{16}\text{O}_4\text{NNaFe}$ .

1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning kaliyli tuzi T.s.=204 °C. Tuzning IQ-spektr: ( $\nu$ ,  $\text{cm}^{-1}$ ): 1415, ( $-\text{CH}_2-$ ), 1115 (Fc), 1260 ( $\text{COOK}$ ), 1688 ( $>\text{C}=\text{O}$ ), 3435 (O-H); ( $\delta$ ,  $\text{cm}^{-1}$ ): 1104 (Fc) 698, 860 (Ar- $\text{COOK}$ ). Aniqlandi: Fe 13,304 %. Hisoblandi: Fe 13,429 %. Brutto formula:  $\text{C}_{19}\text{H}_{16}\text{O}_4\text{NKFe}$ .

**Sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini laboratoriya sharoitida o'rganish.** Andijon davlat universiteti Kimyo kafedrası "Tovarlar kimyosi va Xalq tabobati" ilmiy tadqiqot laboratoriyasida *o*-ferrotsenilbenzoy kislotasi asosida biologik faol birikmalar yaratish maqsadida bir qator yangi moddalar sintez qilishga erishildi. Yangi olingan birikmalarni biostimulyator sifatida urug'lik bug'doy hamda chigitga ta'siri laboratoriya sharoitida Andijon davlat universiteti Kimyo kafedrası "Tovarlar kimyosi va Xalq tabobati" ilmiy laboratoriyasida va Guliston davlat universiteti "Eksperimental biologiya" laboratoriyasida sinovdan o'tkazildi. Tajribalar keng tarqalgan usullardan Kalinkevich metodi hamda Davlat standarti talablari asosida amalga oshirildi.

### Sintez qilingan birikmalarning bug'doyni unishi va rivojlanishiga ta'sirini o'rganish natijalari

Tajribalarda sintez qilingan preparatlarni bug'doyga ta'siri o'rganilganda  $10^{-4}$  –  $10^{-8}$  mol/l eritmalaridan foydalanildi. Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning natriyli tuzining biostimulyatorlik xossasi qolgan preparatlar hamda nazoratga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Olingan natijalardan shuni ko'rsatdiki, tajribaning dastlabki 24 soati o'tgandan so'ng bug'doyning eng yuqori bo'rtishi AXM ning  $10^{-6}$ ,  $10^{-7}$  mol/l konsentrasiyali variantlarda kuzatildi 0,64 va 0,65, 48 soatdan so'ng 0,82 hamda 72 soat o'tib  $10^{-6}$  mol/l konsentrasiyali variantda 0,95,  $10^{-7}$  mol/l konsentrasiyali variantda ham 0,95 mg ni tashkil etdi. Nazorat variantida bu ko'rsatkich 0,71 mg ni tashkil etdi (4 jadval).

**4 Jadval. 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning natriyli tuzi (AXM)ni bug'doyning unuvchanligiga ta'siri**

Statistik ko'rsatkichlar	Bo'rtishdan oldin don massasi, mg	Bo'rtish jarayonida don massasi, mg			Bo'rtish uchun sarflangan suvning don og'irliligiga nisbati, %	Ildiz uzunligi, sm	Maysa uzunligi, sm	Unuvchanlik, %
		24 soatda	48 soatda	72 soatda				
<b>Nazorat</b>								
<b>O'rtacha ko'rsatkich</b>	0,40 ±0,01	0,52 ±0,01	0,60 ±0,01	0,71 ±0,01	89,94 ±0,01	2,60 ±0,01	1,56 ±0,08	<b>63,66</b> ±0,01
<b>AXM</b>								
10 <sup>-4</sup> M	0,38	0,57	0,74	0,83	122,32	2,20	1,53	65,00
10 <sup>-5</sup> M	0,40	0,63	0,76	0,84	108,67	2,83	1,83	52,67
<b>10<sup>-6</sup> M</b>	<b>0,40</b>	<b>0,64</b>	<b>0,82</b>	<b>0,95</b>	<b>133,48</b>	<b>3,10</b>	<b>2,16</b>	<b>76,00</b>
<b>10<sup>-7</sup> M</b>	<b>0,40</b>	<b>0,65</b>	<b>0,82</b>	<b>0,95</b>	<b>133,48</b>	<b>3,12</b>	<b>2,15</b>	<b>79,00</b>
10 <sup>-8</sup> M	0,40	0,63	0,81	0,90	115,37	2,73	1,50	71,00
O'rtacha ko'rsatkich	0,40 ±0,01	0,62 ±0,04	0,79 ±0,02	0,89 ±0,04	121,23 ±0,01	2,80 ±0,01	1,82 ±0,01	68,73 ±0,02

Bug'doy maysalarining unuvchanligi AXM ning 10<sup>-7</sup> mol/l konsentrasiyali eritmasi bilan ishlov berilgan variantda kuzatilib 79 % ni tashkil qildi. AXM ning 10<sup>-6</sup> mol/l konsentrasiyali eritmasi bilan ishlov berilgan variantda esa kuzatilib 76 % ni, nazorat variantida 63,66 % ni tashkil qildi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, AXM bug'doy doniga suv hamda mineral moddalarni so'rilishini, natijada donning unuvchanligini oshirishi isbotlandi.

**Bug'doy dalasidagi sinov natijalari.** Laboratoriya sharoitida yuqori natija bergan AXM ni dala sharoitida sinovdan o'tkazildi. Buning uchun AXM bilan ishlov berilgan bug'doy 1 ga yerga ekildi hamda nazorat va etalon variantlari bilan solishtirildi. Buning uchun AXM ning 10<sup>-7</sup> mol/l konsentrasiyali eritmasi bilan ishlov berilgan bug'doy donining unib chiqishidan to pishib yetilgungacha bo'lgan davridagi o'zgarishlar kuzatib borildi (5 jadval).

**5 Jadval. AXM ni bug'doy donining og'irligiga ta'siri**

Tajriba varianti	Big'doyning bo'yi, sm	Tuplanish soni	1 ta boshoning og'irligi, g	1 ta boshodagi donlar soni, dona	1000 ta don og'irligi, g
Chillaki					
Nazorat	98,0 ± 0,1	1,6 ± 0,2	1,6 ± 0,1	26,4 ± 0,3	38,6 ± 0,4
Etalon (Fitovak)	100,7 ± 0,1	1,6 ± 0,2	1,9 ± 0,1	29,8 ± 0,3	41,9 ± 0,4
<b>AXM</b>	<b>102,0 ± 0,1</b>	<b>1,6 ± 0,2</b>	<b>2,2 ± 0,1</b>	<b>33,9 ± 0,4</b>	<b>44,2 ± 0,4</b>

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, AXM preparati bilan ishlov berilib ekilgan bug'doyning o'sib rivojlanishi, boshodagi donlar soni hamda donning og'irligi nazoratga nisbatan sezilarli yuqori bo'ldi. Laboratoriya hamda dala sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan AXM preparatini Andijon viloyatidagi fermer xo'jaliklarida 2017-2021 yillar davomida 105 ga bug'doyda, hamda AXM-2 preparatini 160 ga maydonda g'o'zada sinovdan o'tkazildi. AXM preparati uchun

solishtirish uchun nazorat (suv), etalon sifatida Fitovak stimulyatori bilan ishlov berilgan bug‘doylar ekildi. Bug‘doyning unib chiqishidan pishib yetilgunga bo‘lgan davrdagi fenologik o‘zgarishlar qayd etib borildi (6 jadval):

**6 Jadval. AXM ni bug‘doyning hosildorligiga ta’siri**

No	Preparat nomi	Tuplanishlar soni	Tuplanish fazasi	Naychalash fazasi, bo‘yi, sm	Bo‘qoqlash	Boshoq chiqarish	Mum pishish, sm	Pishish fazasi	1 m <sup>2</sup> boshoqlar soni	Hosildorlik, s/ga
1	Nazorat	274	2.4	35	94	94	98	98	781	50
2	Etalon (Fitovak)	296	2.6	39	104	104	107	106	833	60
3	AXM	314	2.7	44	112	112	116	116	867	66

Fenologik kuzatuv natijalariga ko‘ra AXM biostimulyatori bilan ishlov berilgan bug‘doy donlarini tuplanishlar soni nazoratga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. AXM hosildorlikka ijobiy ta’sir etib gektariga nazoratga nisbatan 16, etalonga nisbatan 6 s/ga yuqori hosil olingan. Bu har gektar yerdan qo‘shimcha 2 645 000 so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini berdi.

**Sintez qilingan birikmalarning paxta chigitini unishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri.** Paxta chigitini ekishdan oldin 1-(2-karboksifenil)-1'-N-metiloksiferrotsenilamidning kaliyli tuzi (AXM-2) bilan ishlov berilganda nazorat va etalonga nisbatan unib chiqishi, g‘o‘zaning o‘sishi, rivojlanishi, hosil shohlari, ko‘saklar soni va hosildorligi ortgani kuzatildi (7-jadval).

**7 Jadval. G‘o‘zalarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi**

No	Tajriba variantlari	Chin barglar soni, dona	G‘o‘zaning bo‘yi, sm	Hosil shohi, dona	Hosil element lari, dona	Ko‘saklar soni, dona	Hosildorlik s/ga
		1.06.2018	1.08.2018	1.08.2018	1.08.2018	1.09.2018	
1	Nazorat	4,3	95,4	11,2	11,4	11,0	35,6
2	Etalon (Mival)	4,7	101,7	13,2	12,6	12,0	38,4
3	<b>AXM-2</b>	<b>5,0</b>	<b>105,8</b>	<b>15,0</b>	<b>14,2</b>	<b>13,0</b>	<b>40,5</b>

